



## RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING PUL AYLANISH TEZLIGIGA TA'SIRI

*PhD Kayumova Mexribonu*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0000-0002-1966-9287*

*[kayumovamexribonu@gmail.com](mailto:kayumovamexribonu@gmail.com)*

*Xasanova Matlubaxon*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0009-0008-9655-2606*

*[khasanovamatlubaxon2008@gmail.com](mailto:khasanovamatlubaxon2008@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiyotdagi roli, ularning pul muomalasi va pul aylanish tezligiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli to'lov tizimlari yordamida moliyaviy operatsiyalarning tezkorligi, shaffofligi va xavfsizligi ta'minlanib, naqd pulga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Bu jarayon iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, pul aylanmasini tezlashtiradi va moliyaviy xizmatlarning ommabop bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, maqolada elektron to'lovlar, mobil banking va boshqa raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish imkoniyatlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli to'lov tizimlari, pul aylanish tezligi, elektron to'lovlar, mobil banking, raqamli iqtisodiyot.

## ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ НА СКОРОСТЬ ОБОРОТА ДЕНЕГ

*PhD Каюмова Мехрибону*

*Ташкентский государственный экономический университет*

*Хасанова Матлубахон*

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль цифровых платежных систем в экономике, а также их влияние на денежное обращение и скорость оборота денег. С использованием цифровых платежных систем обеспечивается высокая скорость, прозрачность и безопасность финансовых операций, что способствует снижению потребности в наличных денежных средствах. Данный процесс оказывает положительное влияние на экономическое развитие, ускоряет денежное обращение и способствует расширению доступности финансовых услуг. Кроме того, в статье раскрываются возможности ускорения экономических процессов с помощью электронных платежей, мобильного банкинга и других цифровых технологий.

**Ключевые слова:** цифровые платежные системы, скорость оборота денег, электронные платежи, мобильный банкинг, цифровая экономика.

## THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS ON THE VELOCITY OF MONEY CIRCULATION

*PhD Kayumova Mekhribonu*

*Tashkent State University of Economics*

*Hasanova Matlubakhon*

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article analyzes the role of digital payment systems in the economy and their impact on money circulation and the velocity of money. Digital payment systems ensure the speed, transparency, and security of financial transactions, thereby reducing the need for cash. This process positively influences economic development, accelerates money circulation, and contributes to the wider accessibility of financial services. In addition, the article highlights opportunities to accelerate economic processes through electronic payments, mobile banking, and other digital technologies.*

**Keywords:** *digital payment systems, velocity of money circulation, electronic payments, mobile banking, digital economy.*

### **Kirish.**

Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan, moliya va to'lov tizimlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda naqd puldan foydalanish kamayib, uning o'rnini elektron to'lov tizimlari egallamoqda.

Elektron pul (elektron pul) – bu kompyuterlashtirilgan qurilmada ayirboshlash vositasining raqamli do'koni. Elektron puldan bank hisobvaraqlari bilan yoki ularsiz to'lov operatsiyalari uchun foydalanish mumkin. Albatta, katta afzallik - bu har qanday hajmdagi pul o'tkazmalarini tez va oson amalga oshiradigan naqd pulsiz to'lov tizimi.

Elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar nafaqat tezlik, balki qulaylik va shaffoflikni ham ta'minlamoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi to'lov tizimlari rivojiga yangi bosqich olib kirdi. Natijada, an'anaviy naqd pulga asoslangan hisob-kitoblar o'rnini tobora ko'proq elektron va raqamli to'lov tizimlari egallamoqda. Pul aylanish tezligi iqtisodiyotdagi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. U ma'lum vaqt davomida pul birligi nechta iqtisodiy operatsiyada ishtirok etganini ko'rsatadi. Pul aylanish tezligining oshishi iqtisodiyotda savdo-sotiq va xizmatlar ko'rsatish hajmining ortishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda pul muomalasini tezlashtiruvchi omillarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Raqamli moliya va to'lov tizimlari so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon, avvalo, texnologik innovatsiyalar, internetning keng tarqalishi va mobil qurilmalar orqali amalga oshirilmogda. Raqamli moliya tushunchasi, asosan, moliyaviy xizmatlarni raqamli platformalar orqali taqdim etishni anglatadi. Xususan, Fin Tech (moliyaviy texnologiyalar) kompaniyalari raqamli to'lovlar, kreditlash, investitsiyalar va boshqa moliyaviy xizmatlarni taklif etadi (Zhang va boshq., 2020).

Raqamli to'lov tizimlari esa naqd pulni almashtirishga mo'ljallangan elektron yechimlar bo'lib, ular foydalanuvchilarga tezkor va qulay to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy o'sishga hamda moliyaviy inklyuziyaga katta ta'sir ko'rsatmoqda (Jumaniyozov, 2021).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari va xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar raqamli moliya va to'lov tizimlarining o'sishiga sabab bo'lmoqda. (Davlat statistika

qo'mitasi, 2022). Shu bilan birga, raqamli xavfsizlik hamda foydalanuvchilar ma'lumotlarini himoya qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (Khan va boshq., 2023).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Bu tadqiqotda raqamli to'lov tizimlarining pul aylanish tezligiga ta'sirini o'rganish uchun bir qator ilmiy usullar va metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida ilmiy adabiyotlar, iqtisodchi olimlarning ilmiy maqolalari, xalqaro tashkilotlar va markaziy banklarning hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu jarayonda raqamli to'lov tizimlari, elektron pul muomalasi, mobil to'lov platformalari va pul aylanish tezligining iqtisodiyotdagi ahamiyati haqida mavjuda nazariy qarashlar o'rganildi.

Tadqiqot davomida statistik va empirik tahlil metodidan keng foydalanildi. Bunda Markaziy bank, davlat statistika organlari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning rasmiy ma'lumotlari asosida raqamli to'lovlar hajmi, elektron tranzaksiyalar soni, chakana savdo aylanmasi va pul muomalasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar yordamida raqamli to'lov tizimlari rivojlanishi bilan iqtisodiy operatsiyalar hajmi va pul aylanish tezligi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashga harakat qilindi.

Tadqiqot davomida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy naqd pul orqali amalga oshiriladigan to'lovlar bilan raqamli to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar o'zaro solishtirilgan bo'lsa, tizimli yondashuv metodi bilan esa bank tizimi, to'lov platformalari, moliyaviy texnologiyalar (fintech) kompaniyalari va davlat tartibga solish mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Tizimli tahlil natijasida raqamli to'lov tizimlari rivojlanishi iqtisodiy muomalalarni tezlashtirishi va pul aylanish jarayonini samaraliroq tashkil etishga xizmat qilishi aniqlandi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

#### *1. Raqamli to'lov tizimlarining mohiyati va afzalliklari.*

Raqamli to'lov – bu to'lovni raqamli formatda, ya'ni onlayn yoki elektron qurilmalar orqali amalga oshirish jarayonidir. Bu turdagi to'lovlar an'anaviy naqd pul muomalasidan tezkorligi, qulayligi va xavfsizligi bilan farq qiladi. Elektron hamyonlar, bank kartalari, mobil ilovalar (Payme, Click, Apelsin va boshqalar), QRkod orqali to'lov, hamda kontaktless texnologiyalar raqamli to'lovlarning eng keng tarqalgan shakllaridir.

Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Tezkorlik va qulaylik: foydalanuvchi istalgan joydan, istalgan vaqtda to'lovni amalga oshira oladi;
- Shaffoflik: barcha operatsiyalar raqamli izga ega bo'ladi, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish, soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi;
- Xavfsizlik: zamonaviy shifrlash texnologiyalari yordamida tranzaksiyalarni himoyalash imkoniyati mavjud;
- Xarajatlarning kamayishi: naqd pulga ishlov berish, tashish va saqlash xarajatlari kamayadi.

#### *2. Pul aylanish tezligi tushunchasi.*

Pul aylanish tezligi – bu ma'lum vaqt davomida pul birligi iqtisodiyotda nechta tranzaksiyada ishtirok etishini ko'rsatadigan iqtisodiy ko'rsatkichdir. U quyidagi formula orqali ifodalandi:

$$V=Y/M$$

V – pul aylanish tezligi

Y – iqtisodiyotdagi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymati (YAIM)

M – pul massasi


Pul aylanish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotdagi moliyaviy operatsiyalar shunchalik tez amalga oshiriladi.

## 1-jadval

## 2021-2025-yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi

| Ko'rsatkich/Yil                        | 2021     | 2022     | 2023     | 2024     | 2025 |
|--|----------|----------|----------|----------|------|
| Chakana savdo hajmi (mlrd. so'm)       | 44 068,7 | 49 630,0 | 61 423,3 | 72 528,2 | -    |
| Bank sektori sof daromadi (mlrd. so'm) | 5 168    | 8 862    | 10 800   | -        | -    |
| Soliq tushumlari (trln. so'm)          | 128/0    | 148,4    | 165,9    | -        | -    |
| Ishsizlik darajasi                     | 9,6      | 8,9      | 6,8      | -        | -    |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli to'lov imkoniyatlari kengaygani sari chakana savdo hajmi sezilarli o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Masalan, 2021-yilda 44 068,7 mlrd so'mni tashkil etgan chakana savdo hajmi 2022-yilda 49 630,0 mlrdga, 2023-yilda esa 61 423,3 mlrdga yetgan. Bu o'sishning asosiy omili iste'molchilarning naqd pulsiz to'lovlarga bo'lgan ishonchi va qulaylikdir. Shu jumladan, 2022-yil oxirida jami 34,2 million nafar plastik kartalar bo'lib, keng tarqalgan POS-terminal (434 mingdan ortiq) va avtomatlashtirilgan kassa tarmoqlari paydo bo'ldi. Digital to'lovlar savdo aylanmasiga ijobiy ta'sir etgani, davlat statistika ma'lumotlari bilan ham tasdiqlanadi. Banklar rentabelligi ya'ni sof daromadi bo'yicha ham o'sish kuzatilgan.



1-rasm. Bank sektori sof daromadi (mlrd. so'm)

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil oxirida bank sektori sof daromadi 5 168 mlrd so'm bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 8 862 mlrdgacha oshgan. 2023-yilda ham sof daromad 10 800 mlrd so'mni tashkil etdi, bu esa oldingi yilga nisbatan ~22% o'sish demakdir. Raqamli to'lov tizimlari banklar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish, omonatlar hajmini oshirish va xizmat hajmlarini ko'paytirish imkonini berdi. Shuningdek, banklar xizmatlaridan foydalanish ko'pligi ular daromadligini oshirdi (2022–2023 yillarda umumiy aktivlar daromadligi (ROA) 2,6% atrofida). Soliq tushumlariga keladigan bo'lsak, joriy yillarda o'sish ko'zga tashlanadi. 2022-yilda soliq organlari tomonidan jami 148,4 trln so'm soliq tushumlari ta'minlangan, bu 2021-yilga nisbatan 16% ga ko'p. 2023-yil yakunlariga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 165,9 trln so'mga yetdi va 2022-yilga nisbatan yana 11,8%ga o'sgan. Raqamli to'lovlar tufayli tijorat aylanmalari yanada shaffoflashgani va soliq bazasi kengaygani tufayli davlat byudjetiga tushadigan soliqlar miqdori oshdi.

Bandlik darajasi (ishsizlik darajasining kamayishi) ham yaxshilanishgayuz tutgan. Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatda

ishsizlik darajasi yil boshidagi 9,6% dan 8,9% gacha pasaygan. 2023-yil oxiriga esa ishsizlik 6,8% darajasiga tushganligi xabar qilindi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va ayniqsa onlayn savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat kengayishi bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yuqoridagi empirik ma'lumotlar jadvali va tahlili raqamli to'lov tizimlarining kengayishi tarkibida iqtisodiyotning bir qancha sektor ko'rsatkichlari ham yaxshilanganini ko'rsatadi. Raqamli to'lovlar savdo hajmini oshirish, banklarning sof daromadini yaxshilash, soliq yig'ish tizimini samarali qilish va ish bilan band aholi sonini ko'paytirishda muhim omil bo'lmoqda.

Raqamli to'lov tizimlarining rivoji O'zbekistonda bir nechta yirik platformalar paydo bo'lishiga turtki berdi. Jumladan, "Paynet", "Payme", "Click" kabi kompaniyalar aholiga turli qulay to'lov va pul o'tkazmalari xizmatlarini taklif qilmoqda, yaqinda esa yirik elektron tijorat platformasi bo'lgan "Uzum" ham o'z to'lov tizimi (Uzum Bank va superilova ko'rinishida) bilan bozorda faol ishtirok eta boshladi. Bugungi kunda ushbu raqamli to'lov tizimlari kommunal to'lovlar, onlayn xaridlar, davlat boji va hatto jamoat transportida yo'l haqini to'lashda keng qo'llanilmoqda. Hukumat tomonidan 2022 yildan boshlab Toshkent shahri jamoat transportida naqd pulda to'lov taqiqlanishi, chiqindi va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning bosqichma-bosqich onlayn shaklga o'tkazilishi kabi qarorlar qabul qilindi.

Bunday choralar jamiyatda to'lov odatlarining o'zgarishiga va elektron to'lovlar bozori yillik 50-60% atrofida o'sishiga zamin yaratdi. Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri so'nggi yillarda ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda o'rganib kelinmoqda. Xalqaro tajribaga ko'ra, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi moliyaviy operatsiyalarni tez, qulay va shaffof qilish bilan birga, yashirin iqtisodiyot hajmining qisqarishiga yordam beradi. Masalan, Visa kompaniyasining O'zbekistondagi raqamli to'lovlar bo'yicha o'tkazgan maxsus tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron to'lovlarni qabul qilgan kichik biznes subyektlarining uchdan ikki qismida savdo hajmi va mijozlar soni oshgan, biznes yuritish yanada samarali tus olgan. Bunday ijobiy o'zgarishlar nafaqat moliyaviy natijalarda, balki aholining turmush sifati va vaqt tejamkorligida ham namoyon bo'lmoqda.

Akademik adabiyotlarda raqamli to'lovlarning soliq tushumlariga ta'siri alohida e'tibor qaralilayotgan mavzulardan biri. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron to'lovlar hajmining oshishi soliq ma'murchiligini yengillashtiradi, chunki ko'plab bitimlar bank tizimi orqali o'tishi natijasida ularni kuzatish va hujjatlashtirish imkoniyati yaxshilanadi. Masrur va boshqalar (2021) tadqiqotida keltirilishicha, naqd pulsiz to'lovlar bozorining kengayishi byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tushumlarini oshiradi, chunki savdo operatsiyalari rasmiylashadi va soliq bazasi kengayadi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi tashkilotlar ham rivojlanayotgan davlatlarga naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tavsiyalar berib, bu jarayonni byudjet daromadlarini ko'paytirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish omili sifatida ko'rsatib kelishmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. *Raqamli to'lov infratuzilmasini rivojlantirish:* Raqamli to'lov tizimlarining samarali ishlashi uchun zamonaviy texnologik infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bank tizimi va moliyaviy tashkilotlar tomonidan internet va mobil aloqa tarmoqlari qamrovini kengaytirish, to'lov terminallari sonini oshirish hamda zamonaviy to'lov platformalarini joriy etish zarur. Ayniqsa, chekka hududlarda internet infratuzilmasining rivojlanishi aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2. *Aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish:* Raqamli to'lov tizimlaridan samarali foydalanish uchun aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim hisoblanadi. Bu borada banklar, moliyaviy institutlar va davlat tashkilotlari tomonidan aholiga mobil banking,

internet banking va elektron to'lov tizimlaridan foydalanish bo'yicha o'quv dasturlari, seminarlar va axborot kampaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Natijada aholining raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi ortadi va naqd pulsiz to'lovlar ulushi oshadi.

3. *Naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirish*: Naqd pulsiz to'lovlarni kengaytirish iqtisodiyotda pul muomalasining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli banklar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan qulay, tezkor va xavfsiz to'lov platformalarini yaratish hamda ularni keng joriy etish muhimdir. Bundan tashqari, elektron to'lovlardan foydalangan foydalanuvchilar uchun bonus tizimlari, cashback dasturlari va boshqa rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish ham naqd pulsiz to'lovlar hajmini oshirishga xizmat qiladi.

4. *Elektron tijorat va raqamli xizmatlarni rivojlantirish*: Naqd pulsiz to'lovlarni kengaytirish iqtisodiyotda pul muomalasining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli banklar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan qulay, tezkor va xavfsiz to'lov platformalarini yaratish hamda ularni keng joriy etish muhimdir. Bundan tashqari, elektron to'lovlardan foydalangan foydalanuvchilar uchun bonus tizimlari, cashback dasturlari va boshqa rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish ham naqd pulsiz to'lovlar hajmini oshirishga xizmat qiladi.

5. *Kiberxavfsizlikni kuchaytirish*: Raqamli to'lov tizimlarining keng joriy etilishi bilan bir qatorda ularning xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois banklar va moliyaviy institutlar tomonidan zamonaviy kiberxavfsizlik texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlarni himoya qilish tizimlarini kuchaytirish hamda foydalanuvchilarni firibgarlik holatlaridan himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu esa foydalanuvchilarning raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning kengroq qo'llanilishiga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar / Лумепамыра / Reference:**

Egamov, B. (2026). *Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy faoliyatga ta'siri: empirik tahlil. Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation, (1), 324–325.*

Frank.uz. (2025, 10-sentabr). *O'zbekistonning byudjet daromadlari yarim yil ichida 19,2 foizga o'sdi.*

Frank.uz. (2025, 6-noyabr). *Paynet, Payme va Click: foyda bo'yicha kim yetakchilik qilmoqda?*

Hakimova M. (2020) *Таълим жараёнига инновацион технологияларни қўллаш имкониятлари //Архив научных исследований. – №. 32.*

Joseph Schumpeter. (1934). *The Theory of Economic Development. Harvard University Press.*

Kayumova M. (2022) *Elektron ta'lim muhitida talabalarning axborot ko'nikmalarini shakllantirish usullari //Архив научных исследований. – Т. 5. – №. 5.*

Kayumova M. (2022) *OLIY TA'LIMDA RAQAMLI MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNI SHAKLLANTIRISH TIZIMI //Архив научных исследований. – Т. 5. – №. 5.*

Kayumova M. (2022) *Бўлажак мутахассисларни тайёрлашда таълим ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро боғлиқлигини таъминлаш //Архив научных исследований. – Т. 2. №. 1.*

Kayumova M. (2022) *Узлуксиз таълим тизимини модернизациялаш омиллари //Архив научных исследований. – Т. 2. – №. 1.*

Mavlyanovna M. G. *THE ROLE OF CREATIVE COMPETENCIES IN PLANNING STUDENTS'AUTONOMOUS EDUCATIONAL ACTIVITIES //Journal of Modern Educational Achievements. – 2025. – Т. 2. – С. 39-46.*

McKinsey Global Institute. (2022). *Digital Finance and Economic Activity. New York.*

Rustamov, M. (2025). *Raqamli moliya va to'lov tizimlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, (2).*

Tadjibekova, D. B. (2026). *Raqamli to'lov tizimlarining byudjet daromadlariga va naqd pulsiz iqtisodiyotga ta'siri. Science and Education, 437.*

*Thorsten Beck, & Asli Demirgüç-Kunt. (2018). Financial Inclusion and Development. World Bank.*

*Uzakov, U. A. (2025). Raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich. Raqamli iqtisodiyot jurnali, (11), 744.*

*Visa Inc.. (2022). Unlocking the Benefits of Digital Payments: Insights from Uzbekistan.*

*Visa Inc.. (2023). Digital Payments and Economic Impact. London.*

*Хакимова М.Ф. (2021) АХБОРОТ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ //Academic research in educational sciences. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 149-152.*